

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI**Turganova Nesibeli Dosbergenovna**

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14173557>

Jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish (pedagogik) texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligi bayon etilgan. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi.

Kalt so'zlar: *Texnologiya, ta'lim, tarbiya, pedagogik texnologiya, zamonaviy o'qitish, interaktiv texnologiya, audiovizual vositalar.*

DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Abstract. *The formation of new social relations in our society, the integration of education into the world education system, the development of democratization and development processes have shown the need for a new approach to modern teaching (pedagogical) technologies in the educational process. The work of radically reforming the education system, raising it to the level of modern requirements, and raising a competent generation for the future has become a priority direction of state policy.*

Keywords: *Technology, education, upbringing, pedagogical technology, modern teaching, interactive technology, audiovisual media.*

РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *Констатируется формирование новых общественных отношений в нашем обществе, интеграция образования в мировую систему образования, развитие процессов демократизации и развития, необходимость нового подхода к современным обучающим (педагогическим) технологиям в образовательном процессе. Коренное реформирование системы образования, поднятие ее на уровень современных требований, воспитание компетентного поколения будущего стало приоритетным направлением государственной политики.*

Ключевые слова: *Технологии, образование, воспитание, педагогические технологии, современное обучение, интерактивные технологии, аудиовизуальные средства.*

«Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishiga – XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o'q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlanishi, sabab bo'ldi. Bunday murakkab va mehnattalab mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda – xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo'llari va usullarining murakkab jarayonlarini o'zaro bog'liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo'lib, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo'ladi. Bizning davrda, texnologiya deb, ma'lum ishni bajarish san'ati tushuniladi. Uni egallash uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o'rganish taqozo etiladi. «Texnologiya»ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko'paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi. [1]

«Texnologiya» va «Pedagogika»ning fan sifatida bir tarixiy davrda shakllanganligi, bu qonuniy hodisadir. Chunki kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish, ommaviy o'qitishni taqozo etdi. Yuqorida zikr etilganlar ta'lim asoschisi Ya.A.Komenskiyning ilmiy merosini tashkil etadi. XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvining beqiyos va yuqori talablariga javob beradigan pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi ham shu qonuniyatga bo'ysunadi. Pedagogik texnologiya, ta'lim tizimidagi mustaqil fan sifatida o'quv jarayonning barcha elementlarini – o'quv grafigini va o'quv rejasini tuzish, 44 o'qitish va uning natijalarini baholashni - o'z ichiga oladi Oliy ta'lim muassasining o'quv jarayoni o'quv materialini to'la o'zlashtirish tamoyillariga tayanishi lozim. Ya'ni fanning, o'quv dasturiga muvofiq, o'quv materialini barcha talabalar tomonidan o'zlashtirilishi shartdir.[2]

“Ta'lim texnologiyalar”ining rivojlanish bosqichlari Ta'lim texnologiyalarini mazmuni o'zgarishini shartli ravishda davrlarga ajratish. Ta'lim texnologiyalarini rivojlanish tarixining ma'lum bosqichlariga uzviy bog'liq. 1946-yilda AQShning Indiana shtatidagi universitetga audiovizual ta'lim kiritilgan (muallif L.K.Larson). 1954-yilda dasturli o'qitish rejasi asoslab berilgan (muallif – professor B.F. Skinner). 1961-yil Janubiy Kaliforniya universitetida o'qitish texnologiyasi bo'limi ochilgan (bo'lim rahbari – D.D.Finn). 1968-yil LOGO dasturlashtirish tili ishlab chiqilgan va ta'lim muassasasida tatbiq etilgan (AQShdagi Massachusetts texnologik instituti, rahbar – S.Peypert). 1976-yil birinchi shaxsiy kompyuter “Apple” yaratildi (mualliflar S.Jobs, S.Uoznik). 1991-yil. Displeyli sinflarda o'quv maqsadlari uchun maxsus dasturiy vositalardan foydalanilgan. 1990-yil. Ta'limda interaktiv texnologiyalar qo'llanilgan.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim) texnika(si)" tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarini aniq 46 va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi etakchi omillardir deya baholandi.[3]

Boshqacha aytganda, "ta'limda texnologiya – bu audiovizual vositalar" (Persival F., Ellihgton H. A handbook of Educational Technology, London: Kogon page Ltd, 1984, p. 12). Bu ta'rifda "ta'limda texnologiya" dan ko'proq "ta'lim texnologiyasi"ga urg'u beriladi, chunki u o'zida o'quv jarayonini ta'minlash uchun maxsus yaratilgan va 52 moslashtirilgan vositalar (televideniye, til o'rgatish laboratoriyasi)ni hamda ularni amalda qo'llash metodikasini birlashtiradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyasi tarkibiga qattiq (hardware) va yumshoq (software) vositalardan tashqari yana "sezilmagan" (intangible) aspektlar kiradi. Ularga bilimlarning turli tarmoqlari, masalan, psixologiya, sotsiologiya, kasbiy menejment va tizimli tahlilga oid g'oya va tajribalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda bilimlar va o'qitish tizimini optimal o'zlashtirish metodikasini ishlab chiqish uchun texnikaning optika, reprografiya, akustika va mikroelektronika tarmoqlaridan foydalaniladi. Yuqorida qayd etilgan aspektlarda qattiq (proyektorlar, magnitofonlar, televizorlar, mikrokompyuterlar) va yumshoq vositalar (slaydlar, depozitivlar, magnitofonlar, videoyozuvlar, kompyuter dasturlari)ga qarama-qarshi o'laroq, boshqa "tegishli vositalar" (inderware) ham ta'riflanadi. Ushbu yondashuvni asoslab (uni ko'p aspektli yondashuv deb atash mumkin), D.Finn quyidagi fikrni bayon etadi: "Faqat sodda odamlargina texnologiyani apparaturalar va o'quv materiallarining shunchaki majmuyidan iborat, deb tushinishi mumkin. Ammo texnologiya juda keng ma'noga ega. Texnologiya bu – o'quv jarayonini tashkil etish usullari, materiallar, odamlar, muassasalar, "inson mashina" tipidagi modellar va tizimlar haqidagi fikrlar timsoli. [4]

Texnologiya – muammoning iqtisodiy imkoniyatlarini tekshirish. Bundan tashqari, texnologiya fan, san'at va insoniy qadriyatlarining o'zaro ta'siriga ham daxldor". U yana "Pedagogik vositalar, kommunikatsiya va texnologiyalar ensiklopediyasi"da (London, 1978) shunday so'zlarni yozadi: pedagogik texnologiya iborasi "o'qitish vositalari" atamasiga sinonim emas. Pedagogik texnologiya fanlararo birikish (konglomerat) hisoblanadi.

U ta'limning deyarli barcha aspektlari, ya'ni qisqa o'qitish kursidan tortib, to milliy ta'lim tizimining keng qamrovli vazifalari bilan uzviy bog'liq". Muallif pedagogik texnologiya haqida juda ko'p fikr-mulohazalar bildirilgan bo'lsada, lekin Pedagogik texnologiya atamasining ma'nosiga juda kam e'tibor berilganini, uning chuqur tahlil etilmaganini alohida ta'kidlab o'tadi.

"Texnologiya" tushunchasining ikki jihati mavjud: nazariy va amaliy. Birinchisida materiallarni qayta o'zgartirish jarayonlarining ilmiy tavsifi, ikkinchisida muayyan amallarni joriy etish usul va malakalari majmuyi qarab o'tiladi. Nazariy texnologiyaning asosiy muammosi, -deb ta'kidlaydi A.D. Bondarenko, - "inson-tabi'at" tizimini rivojlantirish bilan bog'liq. Uning mazmuni shundan iboratki, yaqin istiqbolda (50-100 yillarda) insoniyat sivilizatsiyasining eng maqbul tarzda rivojlanish strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim". [5]

AQSh 1971 yil – "Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo'yicha AQSh Assotsiatsiyasi". Hozirgi kunda mamlakat bo'ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQShda 1961 yilda "Pedagogik texnologiya" jurnali (Educational Technology), 1971 yilda esa – "Audiovizual o'qitish" jurnali nashr etila boshlandi. Angliya 1967 yil - Pedagogik texnologiya bo'yicha Milliy kengash tuzilgan. 1964 yildan boshlab "Pedagogik texnologiya va o'qitishni dasturlashtirish" (Educational Technology progratted tearing) jurnalini, 1971 yilda – "Pedagogik texnologiya" jurnalini nashr eta boshlandi. Yaponiya - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug'ullanadi. 1967 yilda "Pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy kengash" tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965 yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda "Pedagogik texnologiya" jurnali va ingliz tilida yiliga ikki marta "Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqotlar" jurnali nashr etiladi. Yaqinda "Pedagogik texnologiyalar bo'yicha umum yapon Markaziy kengashi" tashkil etildi, u muammolar bo'yicha xalqaro aloqalar o'rnatish bilan ham shug'ullanadi. Italiya – 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy markaz tashkil etildi va "Pedagogik texnologiyalar" jurnali nashr etiladi. Vengriya - 1973 yili o'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi. [6] Pedagogik texnologiya, o'quv materialining to'la o'zlashtirish kafolatini beradi, ya'ni har bir talaba o'quv fani dasturini kamida 80% ni o'zlashtiradi.

REFERENCES

1. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. «Xalq ta'limi» jurnali, 2001, №3, 69-71 b. 37.
2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011. – 275 b.
3. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar -T: Moliya nashr., 2003

4. Zamirovna A. N., Bahodirovna Z. R. KIMYO FANIDAN “OQSILLAR” MAVZUSINI O ‘QITISHDA ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 22. – №. 2. – C. 49-51.
5. Nargiza A. DEVELOPMENT OF AN IMPROVED TWO-STAGE TECHNOLOGY FOR FIXING MOVING SOILS AND SANDS WITH THE USE OF A MECHANO-CHEMICAL DISPERSER //Universum: технические науки. – 2022. – №. 11-8 (104). – C. 26-29.
6. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.
7. Tajimuratova S. BASQARIW DÁREJESIN ILIMIY DÁREJEDE RAWAJLANDIRIW //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 24-27.
8. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 509-511.
9. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 9. – C. 386-392.